



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 1-iyul, № 132 (9303)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



YANGI O'ZBEKISTON BUNYODKORLARI

Mamlakatimizda 30-iyun – Yoshlar kuni keng nishonlandi



Sana munosabati bilan Toshkentdagi Olimpiya shaharchasida o'tkazilgan tadbirida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari dastlab yoshlarning

turli sohalarida qo'lga kiritayotgan yutuqlari, ilmiy izlanishlari natijalari, innovatsion g'oya va ishlanmalari, ixtirolari namoyish etilgan ko'rgazma bilan tanishdi. Ularning mualliflari,

tashabbuskorlari bilan muloqot qildi. Farg'ona tumanidagi Obod mahallasi yoshlar yetakchisi Islombek Muhammadjonov o'z mahallasida tashkil etgan "Obod ta'lim" o'quv markazi

orqali 600 nafar tengdoshini zamonaviy kasblar va xorijiy tillarga o'qitgan. Shu orqali mahallaning yoshlar ishsizligi va jinoyatchiligidan xoli hududga aylanishiga katta hissa qo'shgan.

"Yashil tashabbuslar" jamg'armasi koordinatori, "Green University" magistranti Gulira'no Mamirovaning ekologik-ijtimoiy va "yashil" innovatsiyalar startaplarini yo'lga qo'yish borasidagi

ishlari davlatimiz rahbarining alohida e'tiborini tortdi.

Rangtasvir tanlovida "Eng original g'oya" nominatsiyasi g'olibi Odinaxon Ma'murjonovanning ijodiy intilishlari, jismoniy imkoniyati cheklanganiga qaramay uyda ta'lim olayotgan bolalar uchun "O'qi va yuksal" loyihasini amalga oshirib kelayotgan Chinora G'ulomovanning matonati Prezidentimiz tomonidan yuqori baholandi. Ularning jamiyatdagi inklyuziv muhitni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarini tizimli qo'llab-quvvatlash yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berildi.

Ko'rgazmaning startaplar, tadbirkorlik va kasb-hunar maydonida yoshlarimizning xalqaro miqyosda raqobatlasha oladigan intellektual salohiyati namoyish etildi.

Prezident maktabi bitiruvchisi, Chikago universiteti talabasi Asilbek Ashurov o'n sakkiz yoshida "Makon AI" startapini ta'sis etib, sun'iy intellektga asoslangan SAT/AP testlariga tayyorgarlik platformasini yaratdi. U bugungi kunda startapi AQSH hamda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasida 100 mingdan ortiq mijoz va investorlardan 380 ming dollar sarmoya jalb etgani, loyiha qiymati 3 million dollarga baholanganini ma'lum qildi.

Prezidentimiz bu kabi yuqori texnologiyali loyihalarni mamlakatimizda keng joriy etish va yosh tadbirkorlarga xorijiy bozorlarga chiqishda ko'maklashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishini ta'kidladi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING YOSHLAR KUNIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Aziz yoshlar!

Qadrlı o'g'il-qizlarim!

Sizlar bilan islohotlarimizning ilk davridan boshlab shakllangan yaxshi an'anamizga ko'ra, bugun – Yoshlar kunida yana bir bor uchrashib turganimdan mamnunman.

Fursatdan foydalanib, barchangizni, sizlar orqali butun yurtimiz yoshlarini ushbu qutlug' bayram bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Biz yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning orzu va intilishlarini ro'yobga chiqarishni islohotlarimizning dastlabki kunlaridan davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida amalga oshirib kelmog'damiz. Shu maqsadda har bir mahallada o'g'il-qizlarimizning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab, ularga ko'makchi bo'ladigan yoshlar yetakchilari korpusini shakllantirdik.

Yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, bandligi, ma'naviyati, vaqtini mazmunli o'tkazishiga Davlat xavfsizlik xizmatini (B. Qurbonov) viloyat va tumanlardagi tizimi bilan birga mas'ul etib belgiladik.

Navqiron avlodni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat, kattalarga hurmat va ezuq insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash maqsadida nuroniy otaxon va onaxonlarimizning boy hayotiy tajribasidan foydalanishni keng yo'lga qo'ydik.

Mamlakatimizda har haftaning payshanba kunini Yoshlar kuni deb e'lon qilib, barcha vazirlik va idoralarni yoshlar muammolarini o'rganish va ularga yechim topish masalasiga to'liq safarbar etdik.

Mana shunday sa'y-harakatlarimiz tufayli yurtimizda yoshlar bilan ishlash muhiti tubdan o'zgardi. Xususan, bilim olish, kasb-hunar egallash, til o'rganish, ish topish va biznesni boshlashda qiyinchilikka uchragan 1,5 million nafar yigit-qizning muammosi "yoshlar daftari" orqali hal qilindi; alohida dasturlar asosida jozibador biznes muhiti va imtiyozli resurslar yaratib berganimiz hisobidan yosh tadbirkorlar soni 5 karra ortib, 287 ming nafardan oshdi; o'quv markazlarini ko'paytirish bo'yicha qulay sharoit yaratganimiz uchun xorijiy tillarni intensiv o'rganayotgan o'g'il-qizlarimiz 3,5 million nafarga yetdi; iqtidorli o'quvchi va talabalarimiz nufuzli fan olimpiadalarida 434 ta,

yosh sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda 2 ming 245 ta medalni qo'lga kiritdi; tarbiyasi og'ir yoshlarni huquq-tartibot idoralari va hokimlarga birlashtirganimiz uchun ikki yilda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik 2,5 karra kamaydi.

Albatta, bu – yoshlar bilan bog'liq barcha masalalar hal bo'ldi degani emas. Davlat xavfsizlik xizmati (B. Qurbonov), Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa'dullayev), Mahallalar uyushmasi (Q. Quronboyev), vazirlar, ularning viloyat va tumanlardagi tizimi, hokimlar, rektorlar, texnikum va maktab direktorlari yoshlarning muammosi, ularning ehtiyoj va qiziqishlari bo'yicha tinimsiz ishlashi kerak.

Bosh vazir A. Aripov har bir vazir, hokim, tarmoq va bank rahbari yoshlar masalasida qanday ishlayotganini qattiq nazorat qilib, har oyda mas'ullardan bu borada hisobot olib boradi.

O'tgan hafta Namanganga amalga oshirgan tashrifim davomida Davlat xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi rahbari Abdurauf Jumanov eng og'ir mahallalarda yoshlar muammolari bo'yicha tahlil markazi, "Bir oy – to'rtta mahalla" loyihasi, "mahalla ustoz" tizimi va texnikumlarni

otaliqqa olish haqidagi o'z tashabbuslari to'g'risida axborot berdi.

Bu tashabbuslar menga juda ma'qul. Endi har bir viloyat davlat xavfsizlik xizmati boshqarmasi rahbari, shahar va tuman hokimlari yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'zlarining ana shunday tajribalarini yaratishi zarur.

Yaxshi natijalarga erishgan rahbarlarga yil yakunida va kelgusi yil Yoshlar kuni arafasida oylik maoshiga alohida ustama va davlat mukofotlari beramiz. Ko'rsatkichlari past, yangilikka intilmagan hudud rahbarlariga nisbatan esa qattiq chora ko'riladi.

Aziz farzandlarim!

Bir haqiqatni bilib olinglar, bugungi kunda davlatlar hududi bilan emas – bilimi bilan, aholi soni bilan emas – texnologiyasi bilan, tabiiy boyliklari bilan emas – inson kapitali bilan raqobatga kirishmoqda.

Endi zamonaviy ilm-fan va tafakkur mahsuli bo'lgan yangi iqtisodiyot – bilimlar iqtisodiyoti hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda.

Men bilaman, o'g'il-qizlarimizning har birida katta salohiyat, iste'dod va iqtidor bor. Sizlar

o'z davrida buyuk kashfiyotlari bilan dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, Birinchi va Ikkinchi Renessansning "aql chirogi" bo'lgan buyuk ajdodlarimizning munosib vorislarisiz.

Albatta, vorislik – bu faqat faxrlanish emas, balki ulkan mas'uliyat hamdir.

Ajdodlarimiz insoniyat taraqqiyoti yo'lida qanday buyuk ishlarni amalga oshirgan bo'lsa, sizlar Yangi O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratadigan kuch bo'lishingiz kerak.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugungi kunda o'zingiz bilimi, iste'dodi, tashabbuskorligi va fidoyiligi bilan Yangi O'zbekiston ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yoshlarimiz safi tobora kengayib borayotgani barchamizni xursand qiladi.

Kecha mana shunday o'g'il-qizlarimizning 20 nafarini "Kelajak bunyodkori" medali bilan, yana 28 nafarini "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan qadrlash haqidagi farmonni imzoladim. Hozir avval mukofotlarni egalariiga topshirib, keyin muloqotni davom ettirsak.

(Davomi 2-betda).



Surur

BU VATAN AZIM BOG'DIR, ERTASIDAN KO'NGIL TO'Q

Kattami, kichik bog'ning bog'boni bo'lsin ekan, Maysadan daraxtgacha mehridan to'ysin ekan, Nihollari bo'y cho'zib qulochini yoyganda, Saxovatli bag'riga boshini qo'ysin ekan.

Ertayu kech bu yashil olam yashnagay axir, Tabiatning qo'ynida misli noyob javohir, Ardoqlagay har birin ko'zin qorachug'iday, Borlig'ini baxsh etib yurakdan suysin ekan.

Asrlar suronini bu zamin yengib kelgan, Bir gulshanki qatrada ezgulik singib ketgan, Chehralari ochilgan navnihollar gurkurar, Saflari oshib-toshib bu chaman to'lsin ekan.

Vodiylar har qarichi bobolar kaftidek pok, Har zarrasi dunyoda topilmas zardek tuproq, Bunda Amir Temurning yurak tafti, shashti bor, Bog'bonidan fidolik darsini olsin ekan.

Orzular qanot bersa, bu elning yuragiga, Minglagan o'g'il-qizning maqsadi, tilagiga,

Ular safida bo'lib hamisha mardonavor, Kelajak sari dadil yo'llardan borsin ekan.

Kim Vatan nomi bilan yuksakka qo'ydi narvon, Xalqni masrur ayladi, ertasini charog'on, Ilmu fanda, sportda jahonni lol aylagan Shunday farzandlar uchun yashnasin, kulsin ekan.

Degayman, bu yo'llarda g'ovlar sizni kutmoqda, Dili siyoh, ul razil yovlar sizni kutmoqda, Ulug'lar ruhi sizga ishonch bersin tuganmas, Shunda dushmanlar ko'ngli hasaddan kuysin ekan.

Intilish, halol mehnat sizga yordir hamisha, O'ringiz yuksaklarda, biling, bordir hamisha, Oshing ko'p dovonlardan, yeting har bir orzuga, Sizga boqqanlar chetda hangu mang qolsin ekan.

Bu Vatan azim bog'dir, ertasidan ko'ngil to'q, Nigohlarida yonar mudom ishonch otlig' cho'g', Nihollari bo'y cho'zib qulochini yoyganda, Aziz bog'bon bag'riga boshini qo'ysin ekan!

O'kir RAHMAT.

AHOLI SONI 129-YILDA QARIYB 10 BAROBAR KO'PAYDI

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirining dastlabki natijalariga ko'ra, O'zbekiston aholisi soni **39 047 321** nafarni tashkil etdi.



Aholi soni dinamikasi:

1897-yil – 3 910,6 ming nafar;	1970-yil – 11 799,4 ming nafar;
1926-yil – 5 272,8 ming nafar;	1979-yil – 15 390,8 ming nafar;
1939-yil – 6 271,3 ming nafar;	1989-yil – 19 905,2 ming nafar;
1959-yil – 8 105,6 ming nafar;	2026-yil – 39 047,3 ming nafar.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat nufusi 1989-yildagi ro'yxatga olish natijalariga nisbatan qariyb 2 barobar, 1897-yildagiga nisbatan esa qariyb 10 barobar ko'paygan.

YANGI OʻZBEKISTON BUNYODKORLARI



Muhandislik va innovatsiya sohasidagi taqdimotlarda talabalar sun'iy intellekt hamda robototexnika yo'nalishidagi yutuqlari aks etgan.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabasi, dronlar poygasi bo'yicha mamlakat chempioni Biloiddin Ismoilov mahalliy antidron tizimlarini yaratish va takomillashtirishda qatnashayotganini ma'lum qildi.

Nukus davlat texnika universiteti talabasi, Nukus yoshlar texnoparki rezidenti Ayzada Asanovanning "Yangi avlod avtomobillari" yo'nalishidagi muvaffaqiyatli loyihasi esa hududlarda ham muhandislik maktablari jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi. Davlatimiz rahbari ushbu innovatsion ishlanmalarni turli tarmoqlarda joriy etish zarurligini qayd etdi.

Navqiron avlodning madaniyati ma'rifiy sohadaagi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish yo'nalishidagi muvaffaqiyatlari ham uchrashuvning asosiy mavzularidan biri bo'ldi.

Davlatimiz rahbari samimiy muloqotda yigit-qizlar tomonidan ilgari surilgan istiqbolli loyiha va tashabbuslarni qo'llab-quvvatladi.

Shundan so'ng Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan uchrashuv o'tkazdi.

Tadbirida videokonferensaloqa rejimida Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlardan ham vakillar masofadan onlayn qatnashdi.

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida yurtimizdagi barcha yigit-qizlarni bayram bilan samimiy tabrikhladi.

– Biz yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning orzu va intilishlarini ro'yogba chiqarishni islohotlarimizning dastlabki kunlaridan davlat siyosatining eng ustovor yo'nalishlaridan biri sifatida amalga oshirib kelmokdamiz, – dedi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, har bir xalqning kelajagi, avvalo, uning yoshlari orzularida, intilishlarida va qalbidagi aks etadi. Zero, millatning ertasi avval yoshlar tafakkurida bunyod bo'ladi, keyin esa hayotga ko'chadi. Shu bois navqiron avlodga e'tibor qaratish, uning iste'dodi va salohiyatini ro'yogba chiqarish har qanday davlatning eng ustovor vazifasi hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda inson qadriini ulug'lash g'oyasi yoshlarga munosabatda yanada yorqin namoyon bo'lmoqda. Yigit-qizlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, bandligi, ta'limi, kasb-hunar egallashi va tadbirkorlikni boshlashi uchun keng imkoniyatlar ochildi. Har haftaning payshanbasi "Yoshlar kuni" etib belgilanib, vazirlik va idoralar o'g'il-qizlar muammolarini o'rganish hamda ularga yechim topishga safarbar etilgan.

Albatta, amalga oshirilgan ishlar allaqachon o'z natijalarini bermoqda. Jumladan, "yoshlar haftasi" orqali 1,5 million nafar yoshning muammosi hal qilindi. Yosh tadbirkorlar soni 5 karra ko'payib, 287 mingdan oshdi. Xorijiy tillarni intensiv o'rganayotgan yigit-qizlar soni 3,5 million nafarga yetdi. Iqtidorli o'quvchi va talabalar nufuzli ham olimpiadalarda 434 ta, yosh sportchilar xalqaro musobaqalarda 2 245 ta medalni qo'lga kiritdi.

XXI asr insoniyat taraqqiyotiga mutlaqo yangi mezonlarni olib kirdi. Agar ilgari davrlarda davlatlarning qudrati, asosan, tabiiy boyliklari, hududining kengligi yoki harbiy salohiyati bilan

baholangan bo'lsa, bugungi global raqobat sharoitida ustunlikning bosh mezonini butunlay boshqacha mazmun kasb etmoqda. Endi mamlakatlar taqdiri yer ostidagi boyliklar bilan emas, inson ongidagi boylik – bilim, innovatsiya, texnologiya va yuksak intellektual salohiyat bilan belgilanmoqda.

Hozirgi kunda dunyo iqtisodiyotini harakatga keltirayotgan asosiy kuch innovatsion g'oya va ishlanmalardir. Eng yirik kompaniyalar inson aqliga, ilmiy kashfiyotlarga va zamonaviy texnologiyalarga tayanayotir. Bir vaqtlar neft yoki oltin strategik resurs sanalgan bo'lsa, bugun sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, bioinjeneriya, katta ma'lumotlar va ilmiy innovatsiyalar taraqqiyotning drayveriga aylandi. Bu esa davlatlar o'rtasidagi raqobatning markaziga inson kapitalini olib chiqdi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yoshlarga yo'naltirilgan investitsiya kelajak iqtisodiyotiga kiritilayotgan eng samarali sarmoyadir. Zamonaviy bilim olgan, chet tillarini biladigan, texnologiyalarni puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan va tashabbuskor yoshlar mamlakatning eng katta strategik resursi hisoblanadi. Tabiiy boyliklar vaqt o'tishi bilan kamayishi mumkin, ammo bilim va tafakkurga qilingan sarmoya, aksincha, yillar o'tgan sayin yangi qiymat yaratadi.

Prezidentimiz ayni shu masalaga urg'u qaratar ekan, bilim, ilm-fan va tafakkur mahsuli bo'lgan yangi "Bilimlar iqtisodiyoti" hal qiluvchi kuchga aylanib borayotganini ta'kidladi. Yoshlarni buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo'lishga, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Rennessans poydevorini yaratishga da'vat etdi.

– Bugungi kunda o'zining bilimi, iste'dodi, tashabbuskorligi va fidoyiligi bilan Yangi O'zbekiston ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yoshlarimiz safi tobora kengayib borayotgani barchamizni xursand qiladi, – dedi davlatimiz rahbari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29-iyundagi farmoni va qaroriga muvofiq, o'z bilimi, iste'dodi, tashabbuskorligi va fidoyiligi bilan Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotgan bir guruh yoshlar "Kelajak bunyodkori" medali va "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlangan edi.

Tadbirida ushbu mukofotlar o'z egalarga tantanali ravishda topshirildi.

Mukofotlangan yoshlar davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar uchun minnatdorlik bildirib, bundan buyon ham o'z bilimi, mehnati va tashabbuslari bilan Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shishga tayyor ekanini ta'kidladi.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari O'zbekiston milliy terma jamoasining futbol bo'yicha jahon chempionatidagi ishtirokiga ham to'xtaldi.

Milliy jamoamiz AQSH, Kanada, Meksika yashil maydonlarida bo'lib o'tayotgan mundialda tarixda ilk bor ishtirok etdi. Hamyurtlariimiz FIFA reytingida 5-o'rinda turgan Portugaliya, 13-o'rindagi Kolumbiya hamda ko'plab futbolchilari Yevropaning yetakchi klublarida to'p suradigan Kongo Demokratik Respublikasi terma jamoalariga qarshi mardonavor kurash olib borib, muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lishiga qaramay, milliy sportimiz sohnasida yangi sahifa ochdi. O'ziga

xos tajriba orttirdi, muxlislar qalbini hayajonga, faxr-iftixorga to'ldirdi.

Prezidentimiz Vatanimiz sharafini himoya qilgan terma jamoamiz a'zolariga ortiqcha his-tuyg'u bilan e'tiroz bildirish, ulardan ayb qidirish xalqimizga xos ish emasligini, aksincha, bugun ularni qo'llab-quvvatlash, ruhini ko'tarish har qachongidan ham muhim ekanini urg'uladi. Futbolni rivojlantirish borasidagi ishlar yangi bosqichda davom ettirilishini ta'kidladi.

Sport mamlakatimiz qudratini namoyon etib, yoshlarning sog'lom va baquvvat ulg'ayishiga hissa qo'shsa, ularning bilim, kasb-hunar hamda texnologiyani puxta egallashi hayotda munosib o'rin topishi uchun eng muhim tayanch bo'ladi.

Davlatimiz rahbari ayni jihatga e'tibor qaratar ekan, yurtimizda har yili 500 ming nafar o'g'il-qizni zamonaviy kasbga o'qitishga qaratilgan "Kelajak bilimlari ekotizimi" yo'lga qo'yilishini qayd etdi.

Endilikda o'quv markazlari tashkil etish istagidagi yoshlarga yer va davlat obyektlari imtiyozli shartlarda beriladi, zarur infratuzilma davlat hisobidan yaratiladi, markazlarni qurish va jihozlash uchun kredit stavkasi kompensatsiya qilinadi.

Qo'lida kasbi bor, lekin yangi ko'nikmalarni egallamoqchi bo'lgan yoshlar uchun "kasb vaucheri" joriy etiladi. Har yili 50 ming nafar yoshning zamonaviy kasblarni o'rganish xarajatlari foizsiz ssuda hisobidan qoplanadi. Ehtiyojmand oilalardagi 85 ming nafar ishsiz yoshga xususiy o'quv markazlarida kasb egallashi uchun bepul vaucher beriladi. Shu yilning o'zida bu tizim uchun 120 milliard so'm ajratiladi.

Texnikumlarda xususiy sektor ishtiroki kengaytirilib, litsenziya talablari soddalashtiriladi. Yangi o'quv yilidan xususiy texnikumlarga ham kasbga o'qitish bo'yicha davlat granti ajratiladi. Xalqaro kasb tanlovlari g'oliblari va ularning ustozlari pul mukofotlari bilan rag'batlantiriladi.

Xorijiy tillarni mukammal biladigan 650 mingdan ziyod yoshlar salohiyatidan mamlakatimizning boy tarixi, madaniy merosi, turizm va eksport imkoniyatlarini xalqaro maydonda targ'ib qilishda foydalanish muhimligi ta'kidlanadi. Shu maqsadda "raqamli kontent" platformasi ishga tushirilib, har yili 20 milliard so'mdan ajratiladi.

Hozirda 150 mingdan ziyod yoshlar xorijda ta'lim olyapti, ilm-fan bilan shug'ullanayapti. Mamlakatimizning turizm va eksport salohiyatini oshirishda bu yoshlarning imkoniyatidan foydalanib, ularni o'ziga ham daromad keltiradigan tizim yaratiladi.

Prezidentimiz oliygoh bitiruvchisini ishga olgan tadbirkorlar uchun yosh mutaxassisga nisbatan daromad va ijtimoiy soliq bir yil davomida 1 foiz etib belgilanishini e'lon qildi. Bu 200 mingga yaqin bitiruvchilarni ishga joylashtirish uchun muhim rag'bat bo'ladi.

Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, harbiy xizmat, migratsiya va jazoni o'tab qaytgan, jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun "Kafolatlangan birinchi qadam" paketi joriy etildi. "Ustoz – talaba" dasturi asosida uyushmagan yoshlarga ko'maklashgan talabalar ham rag'batlantiriladi.

Shuningdek, "Yoshlar mini-franshizasi"

dasturi ishga tushiriladi. Mahalliy brendlar franshizasini oladigan yigit-qizlarga Yoshlar tadbirkorligi jamg'armasidan 300 million so'mgacha foizsiz ssuda ajratiladi. Bu dasturlar uchun 500 milliard so'm yo'naltiriladi.

Yoshlar uchun kasb va til o'rganish, ishga joylashish, tadbirkorlik bo'yicha xizmatlardan "yagona darcha" tamoyili asosida foydalanish imkonini beradigan "Yoshlar xabarlari" tashkil etiladi. Ushbu tajriba Surxondaryodan boshlanib, bosqichma-bosqich boshqa hududlarda ham joriy qilinadi.

Davlat boshqaruvida yoshlarga ishonchni kuchaytirish maqsadida 5 ta yo'nalishda "TOP-100" dasturi amalga oshiriladi. Uning doirasida o'tkazilgan tanlovda g'olib bo'lganlar mukofotlanib, rahbarlik lavozimlariga tavsiya etiladi. Har bir vazirlik va tarmoq o'z yo'nalishida iqtidorli yoshlarni tanlab, xalqaro tashkilotlarga stajirovkaga yuboradi. Yiliga 2 ming nafar yoshni shunday stajirovkalarga yuborish rejasini ishlab chiqiladi.

Navqiron avlodni rag'batlantirish va yagona maqsad atrofida birlashtirish uchun "O'zbekiston yoshlar ligasi" platformasi ishga tushiriladi. Unda yoshlarning ta'lim, kasb, tadbirkorlik, ilm-fan va jamoatchilik faoliyatidagi natijalari baholanadi. Yuqori natijaga erishganlarga grant, kontraktga chegirma, kasb vaucheri, imtiyozli kredit, xorijiy stajirovka, kadrlar zaxirasiga kirish va ipoteka bo'yicha imkoniyatlar beriladi.

– "O'zbekiston yoshlar ligasi" barcha maktab va texnikum o'quvchilari, yurtimizda va xorijiy oliygohlarda o'qiyotgan va ilm-fan bilan shug'ullanayotgan yigit-qizlarimiz, davlat va xususiy sektorda ishlayotgan yoshlarimizni; chet eldagi vatandoshlarimizning farzandlarini Yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lida birlashtiradigan umummiylari harakatga aylanadi, – dedi Prezidentimiz.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda Bank-moliya akademiyasi "aql markazi" sifatida belgilanadi. Akademiya tinglovchilari hududlarda tayyor biznes loyihalarni shakllantiradi. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi esa ularni qulay shartlarda yigit-qizlarga taklif qiladi. Jamg'arma yuqori daromad va ko'plab ish o'rinlari yaratadigan loyihalarga 5 milliard so'mgacha investitsiya kiritadi. Bu tizim kamida 300 ming nafar yoshga o'z biznesini boshlash uchun yo'l ochadi.

Innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham yangi vazifalar belgilanadi.

So'nggi to'qqiz yilda mahalliy startap ekotizimi 15 barobar o'sib, 4 milliard dollardan oshgani, 1 200 dan ziyod istiqbolli startap loyihalar paydo bo'lgani qayd etildi. Endi har bir vazir, tarmoq rahbari va hokim "1 mingta masalaga – yoshlardan 1 mingta yechim" loyihasini ishga tushiradi. Yoshlar ishlari agentligi biznes, axborot texnologiyalari va kreativ iqtisodiyot yo'nalishidagi 100 ta eng yaxshi loyihaga 1 milliard so'mgacha investitsiya kiritadi.

Axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt sohasida yoshlar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratiladi. "Raqamli hukumat" markazida birinchi superkompyuter klasteri ishga tushirildi, kelgusi yil uning quvvati uch karra

oshiriladi. Joriy yilda 20 ta oliygohda sun'iy intellekt laboratoriyalari tashkil etiladi. Yoshlar ushbu imkoniyatlardan bepul foydalanib, hudud va tarmoqlardagi muammolarga yechimlar ishlab chiqadi.

Yangi IT parklar barpo etilishi hisobidan 20 mingdan ziyod yigit-qiz uchun yuqori daromadli ish o'rinlari yaratiladi. "Mening birinchi kompyuterim" dasturi orqali ehtiyojmand oilalardagi 10 ming nafar yoshga noutbuk xaridi uchun yordam ko'rsatiladi.

IT va sun'iy intellekt yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun dual ta'lim kengaytiriladi. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi davlat stipendiyasi hamda iqtidorli qizlar uchun "Muhandis qizlar" stipendiyasi ta'sis etiladi.

Bugungi kunda kimyo, biologiya, fizika, matematika va informatika fanlari bo'yicha nufuzli xalqaro olimpiadalar g'oliblari, ularning ustozlari pul mukofoti bilan taqdirlanmoqda. Endi bu rag'bat sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro olimpiada g'oliblariga ham tatbiq qilinadi.

O'quvchilarni xorijiy til va axborot texnologiyalariga o'qitish maqsadida ikki yil avval Xorazmda boshlangan "Al-Xorazmiy vorislari" loyihasi joriy yildan barcha viloyatlar markazlari va Qoraqalpog'istonda, keyingi yillardan barcha tuman va shaharlarda ishga tushiriladi.

Zamon o'zgartgani sayin inson ongi uchun kurashning shakllari ham kengayib bormoqda. Agar kechagi kunda kitob, teatr yoki televideniye asosiy axborot va tarbiya vositasi hisoblangan bo'lsa, bugun yosh avlodning katta qismi raqamli makonda yashamoqda. Ular axborotni ham, bilimni ham, hatto hayotiy qadriyatlarini ham ko'p jihatdan internet, ijtimoiy tarmoqlar va kompyuter o'yinlari orqali qabul qilmoqda.

Shunday ekan, milliy g'oya va ma'naviyatni yoshlar hayotiga olib kirishning yo'li ham zamon bilan hamnafas bo'lishi tabiiy. Bugun o'g'il-qizlarni raqamli muhitdan uzoqlashtirish emas, balki milliy qadriyatlarini ana shu muhitning o'ziga olib kirish eng oqilona yechimdir.

Kompyuter o'yinlari endi shunchaki vaqt o'tkazish vositasi emas. Ular millionlab yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri va hatto hayotga munosabatini shakllantirayotgan ta'sirchan madaniy mahsulotga aylanadi.

Shu bois yurtimizdagi IT parklarda endi kompyuter va mobil o'yinlar yaratuvchilari uchun inkubatsion markazlar ochildi. Har yili milliy ruhdagi kamida 20 ta kompyuter va mobil o'yin yaratish bo'yicha davlat buyurtmasi beriladi.

Bugungi dunyoda kim o'z hikoyasini qiziqarli va zamonaviy shaklda aytib bera olsa, o'sha qablarni zabt etadi. Shuning uchun ham milliy ruhdagi kompyuter va mobil o'yinlarni yaratish tashabbusi axborot maydonida milliy manfaatlarini himoya qilishning zamonaviy shakli sifatida ahamiyat kasb etadi. Bu o'yinlar orqali yoshlarimiz ajdodlarimizning jasoratini, milliy g'ayramanlarining, boy tariximiz, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz bilan interaktiv tajriba orqali tanishadi. Eng muhimi, bu tashabbus yoshlarning iste'molchi emas, ijodkor bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi. Inkubatsion markazlarda voyaga yetadigan dasturchilar, dizaynerlar, ssenaristlar va geym-dizaynerlar naqaft yangi mahsulot yaratadi, balki milliy madaniyatimizning

raqamli elchilariga aylanadi. Ular o'z intellektual salohiyati bilan milliy merosni global raqamli makonga olib chiqadi.

Har yili milliy ruhdagi kompyuter va mobil o'yinlarni davlat buyurtmasi asosida yaratish sohada uziuksiz ijodiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari industriyasini rivojlantiradi, milliy kontent hajmini oshiradi, ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlaydi, eng muhimi, raqamli makonda milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

– Biz yoshlarga yaratib berayotgan imkoniyatlardan hech bir o'g'il-qizimiz chetda qolmasligi kerak, – dedi Prezidentimiz.

Shu maqsadda "Vatan mehri – ijtimoiy tashabbuslar" tanlovi, ijtimoiy xavf guruhidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Qanot" loyihasi yo'lga qo'yiladi. "Yoshlar tashabbuslari marafoni"da ilgari surilgan g'oyalarni amaliy loyihaga aylantirish uchun "Tashabbuslar ofisi" tashkil etiladi va bu ishlarga 50 milliard so'm ajratiladi.

Uchrashuvda g'iyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlar yoshlar kelajagi va millat genofondiga katta tahdid solayotgani ham qayd etildi.

– Bu yovuz illatning yoshlarimiz orasida ildiz otishiga aslo yo'l qo'ymaymiz, bu baloni tag-tomiri bilan quritmaguncha to'xtamaymiz, – dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz ota-onalarga ham murojaat qilib, farzandning kamol topishi, uning yorqin kelajagi uchun mustahkam poydevor, avvalo, oilada yaratilishini ta'kidladi. Ota-onalarni bugungi tez o'zgarib borayotgan murakkab sharoitda farzand tarbiyasiga har qachongidan ham e'tiborli va mas'uliyatli bo'lishga chaqirdi.

Uchrashuvda yoshlar o'z taklif va tashabbuslarini bildirdi.

Davlatimiz rahbari muloqot yakunida yigit-qizlarni katta marralar sari dadil intilishiga, bilim, kasb va zamonaviy texnologiyalarni puxta egallashga da'vat etdi.

– Men sizlardagi shijoat, bilimga tashnalki va yangilikka intilishni ko'rib, doim ruhanaman. Katta-katta marralar sari olga qadam tashlang, o'qing, yangi bilim, yangi kasb va zamonaviy texnologiyalarni egallang, qiyinchilikdan cho'chimang, mehnat qilishdan, o'rganish va intilishdan hech qachon to'xtamang! Shuni bilinki, ortingizda sizlarni katta umidlar bilan voyaga yetkazgan ota-onangiz, sizlarga bilim va tarbiya bergan, kasb o'rgatgan ustoz va murabbiylaringiz, sizlarga ishonib, doimo qo'llab-quvvatlab kelayotgan xalqimiz, Prezident tog'dek tayanch bo'lib turibdi! – dedi davlatimiz rahbari.

Ochiq va samimiy kechgan uchrashuv o'zaro ishonch ko'prigini yanada mustahkamladi. Yoshlariga ishongan davlat esa o'z kelajagiga ishongan davlatdir. Zero, mutaraqqiy mamlakatlar tarixi shundan dalolat beradiki, kelajak, avvalo, inson qalbidagi, uning orzu-intilishlari va bilimga chanqoq tafakkurida bunyod etiladi. Shu ma'noda, muloqotda yangragan g'oyalar, bildirilgan taklif va tashabbuslar yoshlarga yanada keng imkoniyatlar ehsigini ochib, ularning ruhini ko'tarishga, g'ayratiga g'ayrat qo'shishga, pirovardida Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi sahifalarini ochishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Dilshod KARIMOV ("Xalq so'zi").

VOLONTYORLIK – EZGU-MAQSAD YO'lidagi XAYRLI QADAM



30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyevaning volontyor yigit-qizlar bilan ochiq muloqoti bo'lib o'tdi.

Ochiq muloqot

hududlarda ushbu faoliyatni yanada rivojlantirish, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taklif va mulohazalarini bildirdi.

O'z navbatida, navqiron avlodni qiziqtirgan dolzarb masalalar muhokama qilindi, ilgari surilgan takliflarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari yuzasidan fikr almashildi.

Muloqot davomida faol volontyorlarning jamiyat taraqqiyotiga qo'shayotgan hisssasi

alohida e'tirof etildi. Volontyorlik madaniyatini keng ommalashtirish, yoshlarning fuqarolik faolligini qo'llab-quvvatlash hamda ushbu harakatni yanada rivojlantirish borasidagi ishlar izchil davom ettirilishi lozimligi ta'kidlandi.

Volontyorlik harakati doirasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar ham namoyish qilindi. Ko'rgazmadan esa ta'lim, ekologiya, madaniyat, sport, xayriya va ijtimoiy himoya yo'nalishlaridagi ilg'or tashabbuslar, innovatsion g'oyalar hamda kelajak loyihalari o'rin oldi.

Tadbir yakunida Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti, O'zbekiston Volontyorlar assotsiatsiyasi hamda "Ziyo Forum" jamg'armasi o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi.

hamkorlikni yanada faollashtirish va kengaytirish uchun barcha imkoniyat mavjudligini ta'kidladi. Parlamentlararo munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari, o'zaro manfaatli sheriklikni yanada kengaytirish bo'yicha fikr almashdi.

Uchrashuv do'stona va konstruktiv ruhda o'tdi.

"Xalq so'zi".

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

TOG'-KON SANOATI VA GEOLOGIYA SOHASIDAGI ISHLAR – PARLAMENT NAZORATIDA



Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi tomonidan Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasining 2026-yilning o'tgan davridagi faoliyati yuzasidan axborot eshitildi.

Yig'ilishda sohada amalga oshirilayotgan ishlar, sanoat xavfsizligini ta'minlash, korpusiyaning oldini olish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda inspeksiya rahbariyati uchun belgilangan samaradorlik ko'rsatkichlarining ijrosi atroflicha muhokama qilindi.

Ma'lum qilinganidek, hisobot davrida neft va gaz obyektlarida 400 dan ortiq profilaktika tadbirlari o'tkazilgan, shuningdek, 62 ta kameral nazorat amalga oshirilgan.

Konchilik va portlatish ishlari sohasida 201 ta nazorat tadbiri tashkil etilgan. Natijada 1 248 ta qonunbuzilish holati aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha 175 ta yozma ko'rsatma hamda 136 ta ma'lumotnoma va xulosalar berilgan. Hayot va sog'liq uchun xavf tug'diruvchi holatlar

aniqlangani munosabati bilan 7 ta xavfli ishlab chiqarish obyektida ishlar vaqtincha to'xtatilgan.

Yer osti suvlaridan foydalanish sohasida ham tizimli nazorat ishlari olib borilmoqda. O'tkazilgan o'rganishlar davomida 129 ta holat tahlil qilinib, qonunchilik talablariga zid holatlar bo'yicha belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.

Yig'ilishda sohada raqamli transformatsiya jarayonlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, inspeksiya faoliyatini raqamlashtirish maqsadida "Yer-qa'ri nazorat" axborot tizimi ishlab chiqilayotgani ta'kidlandi. Mazkur tizim nazorat tadbirlarini elektron shaklda tashkil etish, inson omilini kamaytirish, ma'lumotlar shaffoqligini ta'minlash hamda

korruptsiya xavflarini qisqartirishga xizmat qilishi qayd etildi.

Muhokama davomida deputatlar sohada erishilayotgan natijalar bilan birga, ayrim masalalarga ham e'tibor qaratdi. Xususan, noqonuniy qazish ishlarga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish, yer q'a'ridan foydalanish ustidan davlat nazorati ta'sirchanligini oshirish, sanoat xavfsizligi talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish yuzasidan qator taklif va tavsiyalar bildirildi.

Shuningdek, aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida baxtsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish, sohada ochiqlik va jamoatchilik nazoratini kengaytirish masalalari ham muhokama markazida bo'ldi.

Yig'ilishda tog'-kon sanoati va geologiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar ustidan parlament nazoratining izchil davomiyiligi ta'kidlanib, muhokama etilgan masalalar yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Bugundan boshlab yoshlar tashkil etgan tadbirkorlik subyektlarini muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash bilan bog'liq davlat xizmatlari xarajatlarining ko'pi bilan BHMning 10 baravarigacha bo'lgan qismi qoplab beriladi.

XORIJIY TILLARNI O'RGANISH – ZAMON TALABI

O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rganayotgan yoshlar safi yildan-yilga kengaymoqda. Buni "IELTS" kabi xalqaro til bilish sertifikatlarini qo'lga kiritayotgan, bu yo'nalishda eng yuqori 8,5-9 ballni olayotgan iqtidorli yigit-qizlar ko'payayotganida ham ko'rish mumkin. E'tiborlisi, o'zbekistonlik yoshlar nafaqat ingliz, balki boshqa xorijiy tillarni ham qunt bilan o'rganmoqda. Bu borada hukumatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyat va imtiyozlar, joylarda ochilgan xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan o'quv markazlari faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dil so'zi

Biz ham bundan ruhlanib bir necha yil avval Qarshi shahrida hamkorlar bilan birga "Bolalar akademiyasi" nodavlat ta'lim muassasasini tashkil qildik. Barcha o'qituvchilarimiz o'z sohasining haqiqiy bilimdonlari hisoblanadi. Shuningdek, xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydik, doimo tajriba almashib boryapmiz.

Xorijiy tillarni bilish har bir inson uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Shu bois maktabimizga o'quvchilar 4 yoshdan qabul qilinadi. Bu yerda bolalarga ingliz, rus, yapon, koreys va xitoy tillari mukammal o'rgatiladi.

Albatta, har qanday ta'lim muassasasining natijalari, avvalo, uning o'quvchilari erishayotgan yutuqlarda aks etadi. Biz ham ish boshlaganimizga ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, katta natijalarni qo'lga kiritdi. Jumladan, 2-sinf o'quvchisi Muhammadaziz Norqorayev "B1", 3-sinf o'quvchisi Durbek



Fayzullayev va 4-sinf o'quvchisi Fadhiddin Bozorov "B2" darajasini oldi.

Lekin biz ko'zlagan marra bu emas. Oldimizda juda katta maqsad va rejalarimiz bor. Jamoamiz bilan shu yo'lga o'rganishdan, izlanishdan, harakat qilishdan aslo to'xtamaymiz.

Asosiysi, kasbingni sevsang, o'z ustingda izlansang, berilgan imkoniyatlardan unumli foydalansang, muvaffaqiyat yuz ochadi. Shu ma'noda ta'lim sohasidagi kamtarona mehnatlarimni Prezidentimiz yuksak e'tirof etib, "Kelajak bunyodkori" medali bilan mukofotlagani menga katta kuch, shijoat bag'ishladi. Bu mukofotni bugungacha qilgan mehnatlarim uchun emas, balki kelgusida amalga oshirishni mo'ljallayotgan tashabbuslarim uchun deb qabul qilaman.

Asal ZIYODOVA, Qarshi shahridagi "Bolalar akademiyasi" nodavlat ta'lim muassasasi rahbari, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi.

XALQNING ASRLAR OSHA YANGRAB KELAYOTGAN MA'NAVİY OVOZI



Namanganda o'tkazilgan Xalqaro maqom san'ati anjumani milliy san'atimiz qudrati va xalqimizning boy madaniy salohiyatini dunyoga yana bir bor namoyon etdi. Uchinchi bor uyushtirilgan festival nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaqada madaniy hayotidagi muhim voqealardan biri sifatida katta e'tibor qozondi. Joriy yilgi anjuman ko'lami avvalgilaridan ancha o'sdi. Unda qatnashgan mamlakatlar geografiyasi tobora kengayib, xalqaro madaniy hamkorlikning yangi ufqlari ochildi.

Ishtirokchilarning ushbu nufuzli anjuman haqidagi taassurotlari va fikr-mulohazalarini yozib oldik.

Aks sado

Farrux YUNUSOV, O'zbek milliy maqom san'ati markazi bosh direktori:

– Anjumanning tantanali ochilish marosimida ishtirok etgan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, maqom – millatning xotirasi, xalqning qalbi va asrlar osha yangrab kelayotgan ma'naviy ovozidir. Unda ajdodlar hikmati, orzu-umidlari, dardi va quvonchi mujassamdir.

Bunga tadbir davomida yana bir bor amin bo'ldik. Yurtimizga kelgan mehmonlarning qaysi biri bilan suhbatlashmang, ular ana shu noyob merosning betakror jozibasini, shuningdek, bu mumtoz kuy-qo'shiqlarning mohiyati teranligini, ezgulik ulashuvchi, dunyo ahlini birlashtiruvchi qudratini ta'kidladi. Bu esa maqom san'atining xalqaro maydondagi nufuzi va ahamiyati tobora ortib borayotganining yaqqol tasdiqidir.

Gulzeraxon OBLAT, anjuman ishtirokchisi (Xitoy):



– Ushbu anjuman turli davlatlarning mumtoz musiqa san'ati namunalari titinglash, kuzatish hamda maqomshunoslar bilan yaqindan tanishish imkoniyatini taqdim etdi. Bu biz

uchun juda qiziqarli va foydali tajriba bo'ldi. Jahon maqom san'atining rivojlanishi uchun ham bunday xalqaro festivallar nihoyatda muhim.

Men xalqaro darajadagi ko'plab tadbirlarda qatnashganman va ayta olamanki, O'zbekistondagi mazkur anjuman ular orasida o'ziga xos ahamiyatga ega. Unda barcha tashkiliy ishlar yuqori mehmonnavozlik bilan yo'lga qo'yilgan, hamma sharoitlar hozirlangan.

Tadbirda biz ham o'z chiqishimiz orqali ishtirokchilarga ko'tarinki kayfiyat ulashdik, deb o'ylayman. Bizning muqom an'anamizda asar yakunida "Mashrab" qismi bo'ladi va unda barcha qatnashib, raqsga tushishi odat hisoblanadi. Biz ham shu an'anani sahnada namoyon etdik. Asarimizda Mashrab so'zlari qo'llangan qism ham mavjud edi. Festival Namangan shahrida o'tkazilgani uchun ushbu asarni tanladik. Zero, matnda Namangan nomi ham tilga olinadi. Bu bilan mazkur asar orqali festival ruhi va mezbongarga hurmat tuyg'usini ifodalashga intildik.

Shimonomoto AYUMI, xonanda (Yaponiya):

– Biz "Sumiyoshi" va "Manyo no Koyuta" nomli asarlarni ijro etdik. Ushbu qo'shiqlar orqali yapon xalqining milliy madaniyati va musiqiy an'analari namoyon qila oldik, deb o'ylayman.

Yapon musiqasining o'ziga xosligi uning nafaqat ohangida, balki

ritmi, ijro uslubida ham ko'rinadi. Ayniqsa, musiqadagi nafas olish texnikasi, sokinlik va tabiiylikka asoslangan ifoda usuli milliy musiqamizning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Asarni xalqimizning qadimiy musiqiy merosini ifodalovchi koto cholg'usida ijro etdik.

Festival davomida turli mamlakatlardan kelgan san'atkorlarning chiqishlarini kuzatish biz uchun juda qiziqarli bo'ldi. Kelgusida boshqa xalqlarning milliy musiqa asboblari yaqindan o'rganish, ularni sinab ko'rish va turli mamlakatlar ijodkorlari bilan hamkorlikda musiqiy ansambllar tashkil etishni istaymiz.

Teymur JABRAILOV, xonanda va sozanda (Ozarbayjon):



– Ushbu nufuzli anjumanda ishtirok etganidan mamnunman. Turkiy davlatlari va maqom an'analari ega mamlakatlarning bir sahnada jam

bo'lishi biz, san'atkorlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Albatta, bunday yuksak ishonch va mas'uliyatni his qilish bilan birga, uni sharaf bilan ado etishdan faxrlanamiz.

Festival doirasida Ozarbayjon muqom san'atining nodir durdonalaridan biri sanalgan "Bayoti Sheroz"ni ijro qildik. Bu asar xalqimizning boy musiqiy merosi, milliy ruhiyati va asrlar davomida shakllangan maqomchilik an'analari o'zida mujassam etgan.

Muhimi, boshqa yurtlardan kelgan ijrochilarning chiqishlarini ham katta qiziqish bilan tingladik. Har bir xalqning o'ziga xos musiqiy madaniyati, boy tarixi va betakror ijro maktabidan bahramand bo'lar ekanmiz, maqom san'atining naqadar keng qamrovli, chuqur ma'noli va umuminsoniy qadriyat ekanini yanada teran angladik. Bunday festivallar nafaqat san'atkorlarning tajriba almashishiga, balki xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan bu anjumanning ahamiyati beqiyos, deb hisoblayman.

Ulug'bek RO'ZIMATOV ("Xalq so'zi") yozib oldi.

«HALOLLIK VAKSINASI» — BARQAROR TARAQQIYOT VA SHAFFOFLIK GAROVI

Korrupsiyaga qarshi izchil kurash va zamonaviy tizimning tarmoqlardagi samaradorligi xususida

So'nggi davrda O'zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilash, boshqaruv tizimida shaffoqlik va qonuniylikni ta'minlash borasida keng ko'lami, tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz rahnamoligidagi korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangani bejiz emas. Zero, korrupsiya – har qanday taraqqiyotga to'siq bo'luvchi, davlatning iqtisodiy poydevorini yemiruvchi va xalqning adolatga ishonchiga putur yetkazuvchi xavfli illat. Bugungi kunda mazkur transformatsiya jarayonlari faqatgina davlat idoralari bilan cheklanib qolmay, yirik iqtisodiy tarmoqlar va ishlab chiqarish subyektlari faoliyatining ham ajralmas mezoniga aylandi.

Ushbu global islohotlarning mantiqiy davomi sifatida korxona va tashkilotlarda zamonaviy komplayens-nazorat tizimini joriy etish va uning funksional vazifalari ko'lamini davr talabiga mos ravishda kengaytirib borishga alohida e'tibor qaratilyapti. Bu borada mamlakatimiz avtomobilsozlik sanoatining yetakchi korxonalaridan biri bo'lgan "UzAuto Motors Powertrain" aksiyadorlik jamiyati ham davlat siyosatiga hamohang ravishda, korrupsiyaviy omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini yo'lga qo'yib kelmoqda. Korxonamizda tashkil etilgan Ichki nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi ayni shu maqsadlar yo'lida komplayens xizmatini bajaruvchi muhim tuzilma hisoblanadi.

Joriy yilda korxonamiz faoliyatida xavf-xatarlarni boshqarish, sanksiya va eksport nazorati talablariga qat'iy rioya etish, kadrlarni ochiqlik tamoyillari asosida ishga qabul qilish va rotatsiyasini amalga oshirish,

manfaatlar to'qnashuvini samarali boshqarish hamda davlat xaridlari jarayonlarida tizimli qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 32 banddan iborat keng qamrovli Monitoring va nazorat rejasi ishlab chiqildi. Ushbu strategik dastur doirasida belgilangan har bir vazifaning ijrosi qat'iy muddatlarda ta'minlanib, ichki nazorat tadbirlari izchil kuchaytirildi.

Hozirgi kunda korxonada imzolananayotgan barcha ichki lokal hujjatlar, buyruq va farmoyishlarning qonunchilikka mosligi, amaldagi ichki siyosat va tamoyillarga muvofiqligi, shuningdek, ularda manfaatlar to'qnashuvi alomatlari mavjud emasligi komplayens xizmati mutaxassislarining majburiy huquqiy-ekspertlik xulosasi asosida o'tkazilishi qat'iy belgilab qo'yilgan. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda subyektivlik va suiiste'molchilik xavfini minimallashtirish imkonini bermoqda.

Albatta, korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni shakllantirishda faqatgina ma'muriy

usullar bilan cheklanib bo'lmaydi. Bu jarayonda intellektual omil, ya'ni xodimlarning huquqiy ong, malakasi va ijtimoiy mas'uliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda xodimlarning professional salohiyatini mustahkamlash, ularni illatga nisbatan nafrat va murosasiz munosabat ruhida tarbiyalash yo'nalishida tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, respublika darajasidagi huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalar bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan o'quv kurslarida korxonamiz mutaxassislari mintazam ravishda malaka oshirib kelmoqda. Bu esa jamoamizda korrupsiyaga qarshi kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qilyapti.

Davlat va jamiyatning sog'lom hayotiga yot bo'lgan illatlarga chek qo'yishning eng samarali garovi, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, sohada "halollik vaksinasi" bilan "emlangan", yangicha-huquqiy tuyg'u avlodni tarbiyalashdir. Biz ham o'z oldimizga nafaqat ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini oshirish, balki yosh mutaxassislarimizni ushbu yuksak ma'naviy-huquqiy tuyg'u bilan parvarishlash, ular qalbida halollik va vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirishni asosiy maqsad qilib qo'yganmiz.

Ochiqlik va jamoatchilik oldidagi hisobdorlik – komplayens tizimining muhim shartlaridan biri. Shu bois "UzAuto Motors Powertrain" AJ o'zining rasmiy veb-sahifasida korxona faoliyatiga oid

moliyaviy-iqtisodiy hujjatlar, hisobotlar va muhim ma'lumotlarni jamoatchilik uchun ochiq va shaffof tarzda taqdim etib kelmoqda. Bu esa tashqi nazorat va jamoatchilik eshituvini ta'minlashda yuksak natija bermoqda.

Erishilgan yutuqlarning xalqaro e'tirofi sifatida korxonamizda ISO 37001:2016 – "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi" xalqaro standarti to'liq tatbiq etildi va nufuzli xalqaro sertifikatlashtirish organi tomonidan tegishli muvofiqlik sertifikati qo'lga kiritildi. Bundan tashqari, bu yildan boshqaruv tizimi samaradorligini yanada yuqori bosqichga ko'tarish maqsadida ISO 37301:2021 – "Komplayens menejment tizimi" xalqaro standarti talablarini joriy qilish va xalqaro sertifikatni olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

"UzAuto Motors Powertrain" AJda korrupsiyaning oldini olish, ish yurituvda total shaffoqlikni ta'minlash va firibgarlikning har qanday ko'rinishiga qarshi ayovsiz kurashish tizimlari O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari bilan to'liq hamohangdir. Biz kelgusida ham ushbu tizimni yanada takomillashtirish, sohada erishilgan natijalarni barqaror saqlash va korxonamizni korrupsiyadan xoli namunaviy hududga aylantirish yo'lida bor kuch va salohiyatimizni safarbar etamiz.

Saidazim GULYAMOV, "UzAuto Motors Powertrain" AJ bosh direktori.



Qaydnoma

BU OYDAN BOSHLAB NIMALAR O'ZGARADI?

Mamlakatimizda bugundan e'tiboran kuchga kiradigan qonunchilikdagi o'zgarishlar nimalardan iborat? Quyida shular xususida ayrim ma'lumotlarni taqdim etamiz.

G'olibga bosh sovrin – avtomashina!

Milliy qonunchiligimizga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Xorazmdagi savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarida amalga oshirilgan xaridlar bo'yicha nazorat-kassa texnikasi orqali berilgan cheklar asosida yutuqli o'yinlar o'tkaziladi.

Xarid cheklarini "Soliq" ilovasi orqali ro'yxatdan o'tkazgan har bir shaxs yutuqli o'yin ishtirokchisiga aylanadi.

Yutuqli o'yin g'olibiga bosh sovrin sifatida avtomashina taqdim etiladi.

Dafn etish ishlarini amalga oshirishning yangi tartibi

Bugundan 31-dekabrghacha Toshkent shahrida eksperiment tariqasida dafn etish ishlarini amalga oshirishning quyidagi tartibi joriy qilinadi:

– vafot etgan shaxslarni dafn qilishga ruxsat berish faqat qabriston mudiri (nazoratchisi) tomonidan elektron modul yoki uning mobil ilovasidan foydalangan holda bajariladi;

– dafn etish ishlarini ro'yxatdan o'tkazishni qog'oz shaklida yuritish tartibi bekor qilinadi.

"Raqamli komplayens" axborot dasturiy kompleksi imkoniyatlari

"Raqamli komplayens" axborot dasturiy kompleksi sinov rejimida ishga tushiriladi hamda u quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

– korrupsiyaning oldini olish klasteri ishtirokchilari o'rtasida tezkor ma'lumot almashish;

– davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlarini Dasturiy kompleks bilan integratsiya qilish orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini axboriy jihatdan ta'minlash;

– Dasturiy kompleksning "E-Komplaens" modulini ishga tushirish orqali korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari faoliyatini to'liq raqamlashtirish.

Davlat xizmatiga qabul qilishda yagona yondashuv

Yoshlarni davlat xizmatiga qabul qilish jarayonlarida yagona yondashuvni ta'minlash bo'yicha quyidagi tartiblar joriy etiladi:

– suhbat bosqichida beriladigan savollar davlat organining rasmiy veb-saytida kamida 1 oy oldin e'lon qilinadi, bu mezonlarga rioya etilmagan holda savollarni nomzodlarga berish taqiqlanadi;

– ichki tanlovlarni o'tkazishda nomzodlarga nisbatan umumiy yoki maxsus ish stajiga oid talablar belgilanmaydigan va tanlovlar o'tkazilmaydigan lavozimlar ro'yxati hamda tanlovlarni o'tkazishda nomzodlarga nisbatan ko'pi bilan 2 yil umumiy yoki maxsus ish stajiga oid talablar qo'yiladigan lavozimlar ro'yxati belgilanadi.

"Xalq so'zi".

Endilikda mamlakatimizda subsidiya xabarnomasiga ega fuqarolarga uy-joy sotib olguniga qadar pullarini bankka qo'yib ko'paytirib olish imkoniyati beriladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 22 170 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir S. Mamirov.
Musahhiih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.15 Topshirildi – 01.10 1 2 3 4 5 6